



## Analysis of the demographic situation of cities in Tashkent region (on the example of fertility and death)

Malika SAIDMURODOVA<sup>1</sup>

National University of Uzbekistan

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received July 2023  
Received in revised form  
15 July 2023  
Accepted 25 July 2023  
Available online  
15 August 2023

**Keywords:**

demographic situation,  
general birth rate,  
Tashkent region,  
natural reproduction,  
mortality,  
urbanization level,  
migration balance,  
annual growth.

### ABSTRACT

This article analyzes the new demographic situation that has developed by identifying the nature of socio-economic processes that took place in the industrialized cities of Uzbekistan during the years of independence by studying the demography of the cities of the Tashkent region.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss6/S-pp452-457>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Toshkent viloyati shaharlarining demografik vaziyati tahlili (tug'ilish va o'lim koeffitsiyenti misolida)

### ANNOTATSIYA

**Kalit so'zlar:**

demografik vaziyat,  
tug'ilishning umumiy  
koeffitsenti,  
Toshkent viloyati,  
tabiiy ko'payish,  
o'lim ko'rsatgichi,  
urbanizatsiya darajasi,  
migratsiya saldosini,  
yillik ko'payish.

Ushbu maqolada Toshkent viloyati shaharlarining demografiyasini o'rganish orqali mustaqillik yillarida O'zbekistonning sanoatlashgan shaharlarida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar mohiyatini ochib berish orqali vujudga kelgan yangi demografik vaziyat tahlil qilindi.

<sup>1</sup> Doctoral student National University of Uzbekistan. E-mail: Saimurodovam@gmail.com

# Анализ демографической ситуации в городах Ташкентской области (на примере рождаемости и смертности)

## АННОТАЦИЯ

### **Ключевые слова:**

Демографическая ситуация, общая рождаемость, Ташкентская область, естественное воспроизводство, смертность, уровень урбанизации, миграционный баланс, годовой прирост.

В данной статье проведен анализ новой демографической ситуации, сложившейся путем выявления характера социально-экономических процессов, происходивших в промышленно развитых городах Узбекистана в годы независимости путем изучения демографии городов Ташкентской области.

## **DOLZARBLIGI**

Jahon miqyosida shaharlarning demografik rivojlanishi masalalarida olib borilayotgan tadqiqotlarda bu borada turli mintaqalarda mavjud muammolarning tarixiy ildizlarini aniqlash hamda tanqidiy tahlil qilish asosida ularning taraqqiyot istiqbollarning dolzarb vazifalarini aniqlashtirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Shu jumladan, shaharlarda yangi demografik vaziyat shakllanishida tabiiy resurslarni qazib oluvchi korxonalar va korxonalar ishchilari uchun turar joylar birlamchi omil bo'lib xizmat qilganligi, keyinchalik ularning ishlab chiqarishi hamda ijtimoiy – iqtisodiy hayotida katta turg'unlikka olib kelganligi shunday muammolardan biri sifatida juda ko'p mamlakatlarda namoyon bo'lib, ularning to'g'ri yechimini belgilash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi yillarda respublikaning rivojlanishida Toshkent viloyati shaharlarining ahamiyati oshib bormoqda. Bu esa o'z o'rnida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Toshkent viloyatining ertangi kuni – bu sanoatdir", degan so'zlarida namoyon bo'ladi. Shu o'rinda ushbu shaharlarning yaqin o'tmishdagi tarixi va bugungi kundagi muammolari, ularni bartaraf etishga qaratilgan tadqiqotlarga ajratish mumkin. Bundan tashqari, xorijiy tadqiqotchilarning mazkur masala yuzasidan olib borgan izlanishlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

## **METODLAR VA O'RGANILGANLIK DARAJASI**

Ushbu maqolada qiyosiy, miqdoriy, dinamik hamda germeneytik tahlil, og'zaki tarix usullaridan foydalanildi.

O'zbekiston Milliy arxivi, Toshkent viloyati davlat arxivi, Angren, Chirchiq, Olmaliq hamda Bekobod shaharlaridagi 20 dan ortiq arxiv jamg'armalaridagi 100 dan ortiq tarixiy hujjatlar, rasmiy statistika to'plamlari ma'lumotlari, o'nlab davriy matbuot maqolalari, shahar hokimiyatining yillik hisobotlarini tahlil qilish asosida shaharlarning rivojlanish bosqichlari, ularga ta'sir qilgan omillar, ijtimoiy, iqtisodiy muammolar va ularning shahar aholisi hayotiga ta'siri, urbanizatsiya jarayonlari davriy izchillikda tahlil qilindi. Tadqiqotga Toshkent viloyati shaharlaridagi demografik ko'rsatgichlarni tadqiqotga oid tarixiy adabiyotlar hamda geografiya, iqtisodiyot, kabi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar natijalari ham qiyosiy tahlil asosida jalb qilindi.

*Sovet davrida sanoat shaharlariga oid* – M. Rahimov, Sh.A. Zuhridinon, E. Ahmedov, M. Teshaboyev tadqiqotlarida [1], mustaqillik yillarida tarixiy tadqiqotlar [2] bilan bir qatorda geografiya [3] – M.M. Egamberdiyeva, arxitektura [4]– Z.K. Niyazov, [5] Vey Sin esa – iqtisod kabi yo‘nalishlarda ham ilmiy izlanishlar olib borganlar. Ularda shaharlarning tabiiy resurslari, iqtisodiy salohiyati, demografik va urbanizatsion jarayonlardagi o‘rni, ishlab chiqarish kuchlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolari mintaqaviy yondashuv asosida va respublika miqyosida o‘rganilgan [6].

*Xorijiy tadqiqotchilar* izlanishlariga to‘xtalib, ularda migratsiya masalalariga e‘tibor qaratilganligini e‘tirof etish lozim. Xususan, amerikalik siyosatshunos Skott Radnits [7] Toshkent viloyati sanoat shaharlardagi tashqi migratsiya jarayonlarini iqtisodiy omillar bilan bog‘lasa, britaniyalik antropolog Moyya Flinn [8] hamda rossiyalik tadqiqotchi. Sirypkina masalaning ijtimoiy omillariga e‘tibor qaratganlar [9].

Shuningdek, xorijiy tadqiqotchilarning O‘zbekistondagi shaharlar tarixiga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlarida sovet hukumati tomonidan olib borilgan iqtisodiy va ijtimoiy siyosatga tanqidiy munosabat bildirganliklarini ham qayd etish lozim [10].

### **TADVIQOT NATIJALARI**

Aholi – mamlakatning eng katta boyligi bo‘lib, u ishlab chiqarish jarayonlarida muhim va hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston aholi soni jadal o‘sib borayotgan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Ayrim prognozlarga ko‘ra, 2030-yilga borib mamlakat aholisi 40 millionga, 2040-yilda esa 50 millionga yetishi mumkin.

Statistika agentligining dastlabki ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, respublika bo‘yicha doimiy yashovchi aholi soni 36 mln 373 ming kishini tashkil etadi. Bu qiymat 2022-yil mos davriga nisbatan 2,2 foizga ko‘paygan [11].

O‘z o‘rnida ta‘kidlash lozimki, mustaqillik davrida butun respublikada bo‘lgani singari Toshkent viloyatida ham demografik jarayonlar o‘ziga xos kechmoqda. Jumladan, mintaqa urbanizatsiya darajasining nisbatan yuqoriligi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha mamlakatimiz viloyatlari orasida oldingi o‘rinlarning birini egallaydi.

Toshkent viloyati respublika hududining 3,4 foizini tashkil qilgan holda, mamlakat shahar aholisining 10,2 foizini o‘zida mujassamlashtirgan (jami aholining 9.3foizi). Ma‘lumki shahar aholisi sonining ortib borishida uch manba (aholining tabiiy ko‘payishi, migratsiya va qishloq aholi manzilgohlarining shaharlarga aylantirilishi) muhim rol o‘ynaydi. Agar biz viloyat shaharlari bo‘yicha 1989-2020-yillar davomidagi aholi o‘sish dinamikasiga nazar tashlasak, yuqorida qayd etilgan manbalarning u yoki bu xususiyati qaysidir shaharlarda ustun ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, Toshkent viloyatining Bo‘ka, Piskentda tabiiy o‘sish hisobiga, Chirchiq, Angren shaharlarida migratsiya hisobiga, O‘rtaovul, Eshonguzarda atrof qishloqlarning shaharlarga qo‘shilishi natijasida aholi soni ko‘payib borganligiga guvoh bo‘lamiz [12].

O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, viloyat shahar aholisi asosan uning tabiiy harakati natijasida yuzaga kelmoqda. Ushbu jarayonda, albatta, tug‘ilishning ta‘siri katta. Mintaqaning turli yiriklikdagi shaharlari miqyosida aholi tug‘ilish koeffitsentida ham tafovutlar kuzatiladi. (1- jadval). Masalan, 1989-yilda viloyat shaharlarida har ming kishiga tug‘ilganlar soni 24.8 ga teng bo‘lgan bo‘lsa, 1991- yilda 25 promillega ko‘tarilgan. Ushbu davrda O‘qqo‘rg‘on (48.4), Yangiobod (47.5), Parkent (39.5), Piskent (38.4), Bo‘ka (35.2) shaharlarida mazkur ko‘rsatgich yuqori bo‘lgan [13].

**Toshkent viloyati shaharlari aholisining tabiiy harakati  
(har 1000 kishiga nisbatan)**

Toshkent viloyati shaharlari	Tug'ilish				O'lim				Tabiiy ko'payish			
	1989-y.	2006-y.	2012-y.	2020-y.	1989-y.	2006-y.	2012-y.	2020-y.	1989-y.	2006-y.	2012-y.	2020-y.
<b>Shaharlar</b>												
Angren	27.1	20.3	35.4	39.9	6.4	8.2	11.8	11.6	17.0	12.1	20.2	18.0
Bekobod	25.0	17.7	29.8	19.1	7.0	7.1	5.7	5.2	10.6	12.4	19.8	17.1
Bo'ka	35.2	15.8	23.6	29.8	6.8	4.2	5.8	6.0	28.4	11.6	15.5	16.4
Do'stobod	24.3	15.3	24.0	28.7	8.7	7.6	6.5	6.4	15.6	7.7	12.5	14.4
Keles	25.3	16.8	24.5	29.9	7.9	7.4	4.2	8.5	17.4	9.4	13.5	15.2
Olmaliq	20.5	16.4	26.2	30.0	7.3	9.9	9.7	9.6	13.2	6.5	10.1	12.4
Ohangaron	22.8	16.0	23.9	22.1	11.4	10.9	7.5	2.1	12.7	4.6	9.8	10.6
Oqqo'rg'on	48.4	20.8	19.9	26.1	6.0	7.2	5.3	5.7	42.4	13.6	15.6	14.4
Parkent	39.5	20.9	29.6	40.6	5.0	4.6	6.1	8.0	34.5	16.3	15.8	13.9
Piskent	38.4	15.9	15.6	21.3	7.6	5.0	4.9	5.7	30.8	10.9	11.6	12.8
To'ytepa	30.4	14.6	16.5	20.5	9.6	7.8	5.8	6.5	20.8	6.8	9.5	8.3
Chinoz	27.2	17.5	24.8	32.3	6.9	6.4	6.5	7.2	20.3	11.1	12.5	13.8
Chirchiq	21.6	13.9	22.5	26.6	8.1	9.8	11.3	12.0	13.1	4.1	5.6	6.4
Yangiyo'l	24.9	19.7	49.9	12.4	9.4	9.6	14.9	5.1	15.3	10.3	14.5	15.4
Yangiobod	18.8	11.0	12.4	13.6	7.2	12.3	14.6	12.4	11.6	-1.3	2.2	2.4
G'azalkent	38.3	21.2	22.5	15.4	8.6	9.1	10.5	11.4	29.7	12.1	13.6	14.4

1998-yilda mintaqa shaharlarida aholi tug'ilishining umumiy koeffitsenti 17.3 promillega tushgan va shunga mos holda Yangiyo'l (20.9), Angren (18.2), Krasnogorsk (19.5) shaharlarida ham bu ko'rsatgich pasaygan. 2006-yilda esa G'azalkent (21.2), Parkent (20.9), Oqqo'rg'on (20.8), Angren (20.3), Olmazor (18.4), Bo'ka (15.8) kabi shahar manzilgohlarida tug'ilish koeffitsenti eng yuqori, Chirchiq(13.9), Yangiobod (11.0) va Nurobod (4.0) shaharlarida aksincha holat kuzatiladi. Demak, viloyat shahar manzilgohlarida 1991-yildan keyingi davr oralig'ida tug'ilish biroz pasaygan holda, 2006-yilga kelib sur'at biroz mo'tadillashgan. Jumladan, viloyat shaharlarida 1989-yilda tug'ilgan bolalar soni har ming aholiga 24.8 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2006-yil bu ko'rsatgich 16.6 promillega kamaygan. Raqamlardan ko'rinib turibdiki, viloyatning katta shaharlarida tug'ilish ko'rsatgichi birmuncha pasaygan [14].

Umuman aholining tabiiy ko'payishida, tug'ilish darajasi, shuningdek o'lim ko'rsatgichining past yoki barqaror holatda saqlanib turishi muhim rol o'ynaydi. Biroq tadqiqotlar davomida viloyatning aksariyat kichik shaharlarida ham tug'ilish ko'rsatgichining pasayib borganini guvohi bo'lamiz. Holbuki, mazkur kichik shaharlardagi tug'ilish koeffitsenti oddiy qishloq joylardan deyarli farq qilmaydi.

Viloyat shaharlari aholisining o'sishiga o'lim ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. O'lim ko'rsatgichi aholining yosh tarkibi va tug'ilish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, turli yoshda ularning o'zgarishi har xil. Bundan tashqari, o'lim hajmi shaharlar aholisi soni, urbanizatsiya darajasi, shuningdek ekologik, epidemiologik, ijtimoiy va iqtisodiy omillar bilan ham bevosita bog'liq.

Tahlil etilayotgan mintaqa o'lim ko'rsatgichi nisbatan yuqori bo'lgan hududlar qatoriga kiradi. Viloyat shaharlarida o'limning umumiy koeffitsenti 1989-yilda 7.2, 2006-yilda 8.1 promillega ko'tarilganligi qayd etilgan (respublikada esa bu raqam

6 promilledan oshmagan). 1989-yilda mintaqaning Yangiyo'l (10.6), Ohangaron (10.1), To'ytepa (9.6), Chirchiq shaharlarida o'lim ko'rsatgichi nisbatan baland bo'lgan. Har mingta tirik tug'ilganlarga nisbatan bolalar o'limi 1998-yilda 21.4 promillega teng bo'lsa, 2006-yilda 15.4 promillega kamaygan. 2006-yilda bolalar o'limi koeffitsenti Chirchiq (19.3), Yangiyo'l (19.1), Bekobodda (16.5) ancha yuqori. Bu o'rganilayotgan hududda atrof-muhitning ifloslanishi va sanitar-epidemiologik holatning buzilishi oqibatida yuzaga kelayotgan ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy holat bilan tavsiflanadi [15].

Keyingi yillarda atmosferada turli chiqindilarning ko'payishi aholi salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday vaziyat Ohangaron vodiysi shaharlarida nisbatan keskin tus olgan. Mazkur shaharlarda asosan yuqori nafas yo'li, sil kabi kasalliklari ortib bormoqda. Mutaxassislarning fikricha, havoning chang va boshqa birikmalar bilan ifloslanishi oqibatida bu kasallik tez ko'paymoqda [16].

O'lim koeffitsenti 1996-yilga nisbatan tahlil qilinganda, ko'pgina shahar manzilgohlarida uning kamayganligi ko'zga tashlanadi. Biroq Chirchiqda bu ko'rsatgich biroz ko'tarilgan. Viloyatning Yangiobod, Chig'irliq kabi shahar joylarida tug'ilish koeffitsenti o'lim koeffitsentini qoplay olmayapti. Bu esa respublikamiz demografik vaziyatida kutilmagan holatdir. Demak, ushbu shahar manzilgohlarida aholiga tibbiy profilaktik xizmat ko'rsatishni yanada takomillashtirish kerak [17].

Mintaqa aholisi hozirgi vaqtda ko'proq nafas yo'li, ovqat hazm qilish organlari, yurak qon tomir, saraton kasalliklari tufayli vafot etmoqda. Viloyat bo'yicha 2006-yilda yurak qon tomiri kasalligi bilan 8351 kishi, saraton kasalligi bilan 1230 kishi, baxtsiz hodisalar tufayli 1609 kishi halok bo'lgan. Qayd etish kerakki, respublikamiz shaharlarida baxtsiz hodisalar tufayli sodir bo'lgan o'lim ko'rsatgichlari ham ortib bormoqda.

### **XULOSA**

O'zbekistonning Toshkent viloyatidagi aholi demografiyasi hamda migratsion jarayonlar shundan dalolat beradiki, bu mavzu bugungi kungacha to'liq, har tomonlama va yaxlit tadqiqot ob'yekti sifatida mukammal darajada o'rganilmagan. Ammo tarixni qiyosiy tahlil qilish, bugungi voqelikni mushohada etish jamiyatda yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlarni to'laligicha his qilish imkonini beradi. Shuning uchun ham mazkur mavzuni o'rganishning O'zbekiston mustaqillikka erishgan sharoitda aholi demografiyasi va migratsion jarayonlar nazariyasini ishlab chiqish va uning amaliyotini takomillashtirish hamda yuksak ijtimoiy ahamiyatga molik ekanligini ta'kidlash joizdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Рахимов М. История основания и развития социалистического города Бекабад Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1968. – С. 19.; Зухриддинов Ш.А. История основания и развития социалистического города Чирчика. Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1962. – С. 19; Ахмедов Э. Тешабоев М. Новые города Узбекистана. -Ташкент Узбекистан, 1984. ва б.

2. S.B.Shadmanova, O'zbekiston shaharlarida transformatsiya jarayonlari (1917-1941). Toshkent, 2015. – 333 b.; Togayeva A.3. O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari va shahar madaniyati muammolari (1950-1990-yillar). – Toshkent, 2017. – 246 b.; O'zbekistonda zamonaviy shahar madaniyati. – Toshkent, 2017. – 285 b.

3. Салиев А. Проблемы расселения и урбанизации в республиках Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1991. – с. 112. Egamberdiyeva M.M. Bozor iqtisodiyoti sharoitida shaharlar rivojlanishining mintaqaviy muammolari (Toshkent viloyati misolida): Geogr. Fan. nom. diss. – Toshkent, 2008.

4. Ниязов З.К. Урбанизация Ташкентской области за 1991-2006 г. // Архитектура и строительство Узбекистана – 2006. – № 3. – С. 52-55; Латипов Д.В. Проблемы развития градостроительства республики Узбекистан в условиях формирования рыночных отношений. // Архитектура и строительство Узбекистана – 2010. – № 2,3. – С. 7-9. Bakirxonov F.F. O'zbekiston Respublikasi shaharsozlik kodeksi – shaharsozlikni rivojlantirishning qonuniy asosi. // O'zbekiston arxitekturasi va qurilishi – 2002. – №1. – 10-11-betlar.

5. Вей Синь. Формирование и развитие городов Средней Азии. Дисс. ... канд. экон. наук. Ташкент, 1991; Саипова К.Д. Изменение национального состава населения в результате притока промышленных кадров. // Вестник науки и образование. – 2017. – № 10. – С. 31-34

6. Ата-Мирзаев О., Гентшке В.Л., Муртазаева Р. Узбекистан многонациональный: историко-демографический аспект. – Ташкент, 1998; Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р. Салиев А. Историко-демографические очерки урбанизации Узбекистана. – Ташкент: Узбекистан, 2002.

7. Radnitz Scott. Weighing the Political and Economic Motivation for Migration in Post-Soviet Space: The case of Uzbekistan//Europe-Asia Studies. – Vol.58. – 2006. – № 5. p. 653-677.

8. Flynn Moya. Renegotiating Stability, Security and Identity in the Post-Soviet Borderlands: The Experience of Russian Communities in Uzbekistan // Nationalities paper. – Vol.35. – 2007.

9. Цыпьяпкина Ю. Языковые процессы в современном городском пространстве Ташкентской области.//Uzbekistan initiative papers.- 2014 Oct. – No. 20. – p. 4.

10. Burke A.E. A political-economic survey of Soviet Central Asia. A dissertation ... degree of PhD – Pennsylvania, 1959; Hanks R.R. Gi'lasnost, Islam and nationalism: Uzbekistan in the Gorbachev and post-soviet eras. Submitted... the degree of PhD. – Cansas, 1993;

11. Bobojonova D. O'zbekistonda demografik jarayonlar va ularning xususiyati – T.: Fan, 1995.- 96-b.

12. S.I. Bruk, Dunyo aholisi. Etnodemografik qo'llanma. – M.: Nauka, 1986.

13. - 828-bet.

14. M.R.Bo'riyeva, O'zbekistonda neft demografiyasi. – T.: Uni- F universitet, 1997. 175-6. T.: Fan, 1992.

15. I.I.Iskandarov, O'zbek Sovet Sotsialistik respublika. – T.: O'zbekiston, 1977. – b. 71.

16. F.K.Komilova, O'zbekistonning demografik salohiyati. – T.: O'zbekiston, 1991. – b. 143.

17. M.K.Karaxanov, Nokapitalistik rivojlanish yo'li va aholi muammolari. - T.: Fan, 1983. – p. 239.

18. Karimov A. Cho'l va odamlar. – T.: O'zbekiston, 1978. – 79-b.